РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УСОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ КОМПОНЕНТОВ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	1029
Иминов Акбаржон Одилжонович	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA BOSHQARUV SALOHİYATINI OSHIRISH	1034
Tleubergenov Raxat Shahibaevich	
THE ROLE OF ESG IN ADVANCING CORPORATE REFORMS IN UZBEKISTAN	1038
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA MARKETING ROLI ORQALI IQTISODIY SIYOSATGA TA'SIRI.....	1043
Egamberdiyev Muzaffar	
DAVLAT BUDJETI JARAYONINI OPTIMALLASHTIRISH YO'NALISHLARI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1046
Nosirov Islombek Xurram o'g'li	
O'ZBEKISTONDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'INING PROGRESSIV STAVKASINI JORIY ETISH MEKANIZMI	1052
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich, Xujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li, Otabekov Otajon G'ayrat o'g'li, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KORXONANING MODDIY BAZASI	1060
Ozodova Shahzoda Ulug'bek qizi	
FINTECH-STARTAPLAR VA TIJORAT BANKLARI HAMKORLIGI: SINERGETIK INTEGRATSIYA VA INNOVATSION EKOTIZIM SHAKLLANISHI	1064
Normo'minov Temurbek Sheraliyevich	
DAVLAT FUQAROLIK XIZMATHILARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASHDA YANGI YAGONA TARIF SETKASINI JORIY ETISH MASALALARI	1069
Oqiljonov Azizjon Olimjon o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ДИСТАНЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ	1074
Хасилова Висола Шоохоровна	
HARD WORK, INDEBTEDNESS AND HOPE: A SOCIO-ECONOMIC LOOK OF MODERN LABOR	1078
Rakhmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....	1085
Muradova Minavvar Izzatullayevna	
O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI	1089
Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich	



TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1094
G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....	1099
Azimova Hulkar Egamberdiyevna	
СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....	1103
Амирджанова Ситора Суннат кизи	
IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1108
Ibragimov Nodir Nusriddinovich	
MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1113
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....	1119
Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djамaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyeovich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каюмов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhraxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDA FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	
KICHIK BIZNESNING HUDUDIIY ISH BILAN BANDLIKKA TA'SIRI	1367
Qulmatov Alimjan Abdulloyevich	
INDUSTRIYA 4.0 SHAROITIDA KASBLAR TARKIBI TUZILMASI VA KOMPETENSIYALAR TRANSFORMATSIYASI	1371
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
RAQAMLI IDENTIFIKATSIYA (E-ID) TIZIMINING G'AZNACHILIK OPERATSIYALARIDA QO'LLANISH ISTIQBOLLARI	1375
Raximov Shaxzod Maxsudjanovich	
IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA AVTOMOBIL SANOATI KORXONALARINING INVESTITION FAOLIYATINI STRATEGIK RIVOJLANTIRISH	1380
Kasimova Nozima Omilovna	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE EFFECTIVE PERFORMANCE OF AN INDUSTRIAL ENTERPRISE IN THE CONTEXT OF INDUSTRY 4.0	1384
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
TEACHING PROGRAMMING COLLABORATIVELY THROUGH GOOGLE COLAB AND GITHUB INTEGRATION	1388
Saidova Difuza Ergashovna	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	1392
Djumayev Zayniddin Axmedovich	



ЦИФРОВАЯ МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА: КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ОСНОВА И КЛЮЧЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ	1397
Киличева Феруза Бешимовна	
ТРАНСФОРМАЦИЯ КОНСТИТУЦИОННЫХ НОРМ О СОБСТВЕННОСТИ И ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СВОБОДЕ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА	1401
Абдуллаева Мавлюда Садыковна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI INNOVATSION IQTISODIYOTDA QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI.....	1407
Mirzaaxmedov Nodirbek Shavkatovich	
KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH VA MARKETING STRATEGIYASINI TANLASH	1414
Yoqubjonova Dildora Timur qizi	
TURISTIK XIZMATLAR BOZORINING XUSUSIYATLARI VA BRENDLASH IMKONIYATLARI	1420
Yusupova Moxinur Farxod qizi	
TA'LIM TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY AKTIVLARNI BOSHQARISH.....	1428
Meliboyev Ibroxim Mavlon o'g'li	
SOLIQ NAZORATINI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTONGA TATBIQ ETISH IMKONIYATLARI.....	1432
Kodirov Aqliddin Hakim o'g'li	
AVTOMOBIL SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARINING QO'LLANILISHI	1437
Adamboyev Abror Akrom o'g'li, Akramov T.A.	
CHARM-POYABZAL KORXONALARIDA RESURSLARDAN MUQOBIL FOYDALANISH SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI PROGNOZLASH	1443
Otaniyozov Orifjon Otaxonovich	
BANK KAPITALI YETARLILIGI VA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	1449
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA RESURS TANQISLIGINING OLDINI OLISH MASALALARI	1454
Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi	
THE IMPACT OF DIGITAL PAYMENT SYSTEMS DEVELOPMENT ON THE BANKING SECTOR: A COMPARATIVE ANALYSIS OF CENTRAL ASIAN COUNTRIES	1459
Aziza Farmonovna Ergasheva, Rustam Olimjonovich Oltinov	
ICHKI AUDIT VA UNING KORXONA NAZORAT TIZIMIDAGI O'RNI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1472
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RISK TURLARI VA KELIB CHIQISH OMILLARI	1477
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
O'ZBEKISTONDA TURISTLARGA OVQATLANISH XIZMATLARINI KO'RSATISHNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1483
Maxmadiyeva Charos Xayrullayevna	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING SAMARALI YO'LLARI.....	1487
Adilov Mirkomil Miralimovich	
BUDJET JARAYONIDA OCHIQLIK VA SHAFFOFLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARINING AMALDAGI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	1494
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
KICHIK TADBIRKORLIK LOYIHALARINI MOLIVALASHTIRISHDA BANK KREDITLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	1499
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARINING ISHTIROKI VA ULARDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	1504
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
МАКРОЭКОНОМИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОПТИМИЗАЦИИ НАЛОГОВЫХ ПОСТУПЛЕНИЙ И ЕЁ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ.....	1509
Муталова Дилором Махамаджановна, Хакимова Ситора Ильёсжон кизи	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TELEKOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI VA MEXANIZMLARI.....	1515
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
INNOVATSION FAOLIYATNI RAG‘BATLANTIRISHDA DAVLATNING O‘RNI.....	1518
Saitkamolov Muxammadxo‘ja Sobirxo‘ja o‘g‘li	
SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING MOHIYATI VA UNING TADBIRKORLIK MUHITIDAGI O‘RNI.....	1521
Xurramov Azizbek Muxiddin o‘g‘li	
DETERMINATION OF SEED DAMAGE IN THE PNEUMATIC TRANSPORT SYSTEM BY CONDUCTING EXPERIMENTS	1527
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
GEOTAHLLILY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO‘JALIKLARINING YER BILAN TA‘MINLANGANLIGINI BAHOLASH.....	1531
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o‘g‘li	



GEOTAHLILY YONDASHUV ASOSIDA DEHQON XO'JALIKLARINING YER BILAN TA'MINLANGANLIGINI BAHOLASH

Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: abutolibaxmatov06@gmail.com

ORCID: 0009-0009-5121-3114

Annotatsiya. Mazkur maqolada dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganligini geotahliliy yondashuv asosida baholash masalasi yoritilgan. Geoinformatsion tizimlar (GIT) vositasida Qashqadaryo viloyatidagi dehqon xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlari tahlil qilinib, ularning miqdoriy va fazoviy holati o'rganildi. Tadqiqot natijalari yer resurslarining hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani va ayrim joylarda xo'jaliklarning yerga ehtiyoji yuqoriligini ko'rsatdi. GIT asosida yer resurslarini baholash dehqonchilikda samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va agrar siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: geotahliliy yondashuv, dehqon xo'jaligi, yer resurslari, yer bilan ta'minlanganlik, geoinformatsion tizimlar, fazoviy tahlil, Qashqadaryo viloyati.

Abstract. This article addresses the assessment of land availability for dehqon (smallholder) farms using a geo-analytical approach. Through the application of Geographic Information Systems (GIS), the land plots assigned to dehqon farms in the Kashkadarya region were analyzed, and their quantitative and spatial distribution was examined. The findings reveal an uneven distribution of land resources across territories and a high demand for land in certain areas. GIS-based land resource assessment contributes to increasing agricultural efficiency, promoting rational resource use, and improving agrarian policy.

Key words: geo-analytical approach, dehqon farm, land resources, land availability, geographic information systems, spatial analysis, Kashkadarya region.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос оценки обеспеченности дехканских хозяйств земельными участками на основе геоаналитического подхода. С использованием геоинформационных систем (ГИС) проведён анализ земельных площадей, закреплённых за дехканскими хозяйствами Кашкадарьинской области, изучены их количественные и пространственные характеристики. Результаты исследования показывают неравномерное распределение земельных ресурсов по территориям и высокую потребность в земле в отдельных районах. Оценка земельных ресурсов на основе ГИС способствует повышению эффективности землепользования, рациональному использованию ресурсов и совершенствованию аграрной политики.

Ключевые слова: геоаналитический подход, дехканское хозяйство, земельные ресурсы, обеспеченность землёй, геоинформационные системы, пространственный анализ, Кашкадарьинская область.

KIRISH

Aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqat xavfsizligining dolzarbligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishi fonida dehqon xo'jaliklarining samarali faoliyat yuritishi bevosita ularning yer resurslari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir. Ayniqsa, O'zbekiston kabi agrar yo'nalishda yetakchi bo'lgan mamlakatda dehqon xo'jaliklarining yerga egalik qilishi, undan oqilona foydalanishi va mahsuldorlikni oshirishi strategik ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va geoinformatsion tizimlar (GIT) yordamida yer resurslarini tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa hududiy yer taqsimoti, dehqon xo'jaliklari o'rtasidagi tenglik va samaradorlikni ilmiy asosda baholash imkonini beradi. An'anaviy statistik yondashuvlar bilan bir qatorda, fazoviy tahlil va xaritalashtirish metodlari orqali yer maydonlarining joylashuvi, hajmi va sifati bo'yicha chuqur tahlillar olib borish mumkin bo'lmoqda. Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati misolida dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik darajasi geotahliliy yondashuv asosida baholanadi. Bu orqali yer resurslarining hududiy



taqsimoti, foydalanish intensivligi va mavjud muammolar aniqlanadi hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dehqon xo'jaliklarining yer resurslari bilan ta'minlanganligini baholash masalasi global miqyosda ko'plab tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Xalqaro miqyosda yer resurslaridan foydalanish samaradorligi, ularning hududiy taqsimoti va mulk shakllarining ta'siri bo'yicha bir qator ilmiy ishlar mavjud. Masalan, FAO (2020) hisobotlarida kichik fermer va dehqon xo'jaliklarining barqaror rivojlanishdagi o'rnini va ularning yerga egalik qilishi ustuvor masala sifatida ko'rsatilgan [1].

Geotahliliy yondashuv (spatial analysis) va geoinformatsion tizimlar (GIS) asosida yer resurslarini baholash usullari haqida esa Batty (2013), Longley va boshqalar (2015) tomonidan fundamental nazariy asoslar ishlab chiqilgan [2], [3]. Ushbu tadqiqotlarda yer maydonlarining fazoviy tahlili, kartografik vizualizatsiya va GIT dasturlarining imkoniyatlari chuqur yoritilgan.

O'zbekistonda esa dehqon xo'jaliklarining faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan bir qancha ilmiy ishlar mavjud bo'lsa-da, geotahliliy yondashuv asosidagi tadqiqotlar nisbatan kam. Xususan, T. Xolboyev (2021), M. Mamatqulov (2022) singari mualliflar yer-suv resurslarining tahlili, ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish va hududiy rejalashtirish masalalariga e'tibor qaratgan [4], [5].

Ammo dehqon xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlarining fazoviy bahosi, ularning soni va hajmi bo'yicha mintaqaviy tafovutlar ko'proq ilmiy tahlilni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning yangiligi – geotahliliy yondashuv yordamida Qashqadaryo viloyatidagi dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik holatini tizimli va fazoviy jihatdan o'rganishidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida faoliyat yuritayotgan dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik darajasi geotahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Dastlab, tadqiqot uchun zarur bo'lgan statistik va fazoviy ma'lumotlar yig'ib olindi. Bunda Qashqadaryo viloyati Yer resurslari va davlat kadastr bo'limi, O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi hamda Dehqon xo'jaliklari uyushmasidan olingan ma'lumotlar asos bo'ldi. Yer maydonlariga oid fazoviy axborotlar esa geoinformatsion tizimlar orqali (shp-fayllar, koordinatalar, kadastr xaritalari) shakllantirildi.

Tahlil jarayonida ArcGIS Pro va QGIS dasturlaridan foydalanildi. Ushbu dasturlar yordamida dehqon xo'jaliklari joylashuvi, ularga ajratilgan yer maydonlarining o'lchami va zichligi bo'yicha fazoviy tahlillar amalga oshirildi. "Buffer zone", "spatial join", "interpolation" va "density analysis" kabi GIT funksiyalari orqali yer taqsimotining ichki tuzilmasi aniqlashtirildi hamda xaritalashtirildi.

Dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik holatini baholashda bir nechta asosiy indikatorlardan foydalanildi. Bular — xo'jalikka to'g'ri keluvchi o'rtacha yer maydoni (gektarda), yer egalik koeffitsienti (umumiy yer maydoni xo'jaliklar soniga nisbati), yer taqsimoti zichligi (xo'jaliklar sonining kvadrat kilometrga nisbati) va fazoviy dispersiya koeffitsienti kabi ko'rsatkichlardir.

Ushbu indikatorlar asosida olib borilgan tahlil yer resurslarining notekis taqsimlanganligini, ayrim hududlarda yerga bo'lgan ehtiyoj yuqori ekanini hamda ayrim dehqon xo'jaliklari yer bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligini aniqlash imkonini berdi. Fazoviy tahlil natijalari statistik ma'lumotlar bilan solishtirilib, chuqurroq tahlil qilindi va bu esa tadqiqot natijalarining ishonchlilikini oshirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Geoinformatsion tizim (GIS) asosida o'tkazilgan fazoviy tahlil shuni ko'rsatdiki, Qashqadaryo viloyatida dehqon xo'jaliklariga birlashtirilgan yer maydonlari hududlar bo'yicha juda notekis taqsimlangan. Ayrim tumanlarda (Koson, Kasbi, Nishon) dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik darajasi nisbatan yuqori bo'lsa, boshqa tumanlarda (Mirishkor, Dehqonobod, G'uzor) yerga ehtiyoj sezilarli darajada yuqori ekani aniqlandi. Bu FAO tomonidan qayd etilgan "yer resurslarining nomutanosib taqsimlanishi barqaror rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi asosiy omil" degan fikrga mos keladi [1].

GIS xaritalari asosida aniqlangan hududiy tafovutlar shuni ko'rsatdiki:

- sug'oriladigan yerlar nisbatan cheklangan;
- qurg'oqchil maydonlarda yerga bo'lgan ehtiyoj yuqori;
- meliorativ holati yomon hududlarda yer unumdorligi past;
- dehqon xo'jaliklari joylashuvida geografik nomutanosiblik mavjud.

Bu holat yer resurslarini qayta taqsimlash va agrar siyosatni hududiy farqlarga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.



2. Yer maydonlarining hajmi va soni bo'yicha natijalar

Tahlil natijasida Qashqadaryo viloyatida dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer uchastkalarining:

- katta qismi kichik maydonli (0,03–0,10 ga oralig'i);
- ayrim tumanlarda o'rtacha maydon 0,15 gadan oshmaydi;
- faqat suv bilan ta'minlangan hududlarda maydonlar nisbatan yirikroq;
- laxm, adir va cho'l hududlariga yaqin yerlarda maydonlar ko'proq, ammo unumdorlik past.

Bu natijalar Batty tomonidan ilgari surilgan "fazoviy resurslarning miqdoriy tafovuti hududiy rivojlanish sur'atlariga ta'sir ko'rsatadi" tamoyilini tasdiqlaydi [2].

3. Yer-suv resurslarining geotahlili

GIS asosida suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ham o'rganildi. Natijalarga ko'ra:

- Amudaryo va Qarshi magistral kanali hududlariga yaqin yerlarda sug'orish imkoniyati yaxshi;
- Nishon, Mirishkor kabi past tog'oldi hududlarda suv tanqisligi yuqori;
- quvur orqali suv oladigan hududlarda suv bosimi past;
- suvning sifati ayrim joylarda past bo'lib, bu hosildorlikka ta'sir qilmoqda.

Longley va boshqalarning GIS bo'yicha ilmiy tadqiqotlarida suv resurslari bilan ta'minlanganlik fazoviy iqtisodiy samaradorlikning asosiy omili sifatida ko'rsatilgan bo'lib, ushbu natijalar bunga mos keladi [3].

4. Geotahliliy yondashuvning afzalliklari bo'yicha natijalar

Geotahliliy (spatial) yondashuv qo'llanishi natijasida:

- yer maydonlarining kartografik vizualizatsiyasi aniq ko'rsatkichlar berdi;
- dehqon xo'jaliklari zichligi bo'yicha "issiq nuqtalar" (hotspots) aniqlandi;
- yer taqsimotidagi nomutanosiblik darajalari sinflarga ajratildi;
- suv ta'minoti bilan bog'liqlik koeffitsientlari hisoblandi;
- meliorativ holati bo'yicha tasnif yaratilgan GIS qatlamlari tayyorlandi.

Bu Longley va Batty tomonidan ilgari surilgan "fazoviy tahlil orqali qaror qabul qilish samaradorligini oshirish" tamoyillariga to'liq mos keladi [2], [3].

5. O'zbekiston olimlarining ilmiy qarashlari bilan taqqoslash

Mahalliy tadqiqotchilar – Xolboyev [4] va Mamatqulov [5] – yer-suv resurslarining iqtisodiy bahosi, samaradorlik ko'rsatkichlari va hududiy rejalashtirish masalalarini o'rgangan. Ushbu tadqiqotning natijalari ularning ilmiy qarashlarini kengaytiradi, chunki bu ishda:

- resurslar faqat iqtisodiy nuqtai nazardan emas, fazoviy-geografik yondashuv orqali o'rganildi;
- yerlarning miqdoriy va fazoviy nomutanosibligi aniq xaritalashtirildi;
- dehqon xo'jaliklari joylashuvining hududiy qonuniyatlari aniqlashtirildi.

6. Muammolar bo'yicha aniqlangan natijalar

Tahlil jarayonida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

1. yer-suv resurslarining hududiy nomutanosib taqsimoti;
2. yer unumdorligining notekisligi – sho'rlanish darajasi yuqori hududlarda hosildorlik keskin past;
3. agrotexnik xizmatlarning zaifligi;
4. yerga egalik hajmining kichikligi – 0,03–0,10 ga maydonlar samarali mexanizatsiyani qiyinlashtiradi;
5. GIS texnologiyalarining amaliyotga kam joriy etilgani.

7. Tadqiqotning amaliy ahamiyati

Olingan natijalar asosida:

- yer resurslarining fazoviy taqsimoti bo'yicha GIS xaritalari yaratildi;
- dehqon xo'jaliklari uchun resurs ta'minoti bo'yicha optimallashtirilgan model ishlab chiqish mumkin;
- agrar siyosatni hududiy farqlar asosida takomillashtirish zarurati aniqlandi;
- suvni tejovchi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha asos ishlab chiqildi;
- yerga egalik siyosatini qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar shakllantirildi.

Olib borilgan geotahliliy tahlillar natijasida Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlarida dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtacha ko'rsatkichlardan sezilarli farq qilishi aniqlandi. Jumladan, viloyatning markaziy hududlarida (Qarshi, Koson) yer maydonlari nisbatan katta bo'lib, xo'jalikka to'g'ri keluvchi o'rtacha yer hajmi 0,6–0,8 gektarni tashkil etdi. Aksincha, tog'oldi va suv resurslari cheklangan hududlarda (Dehqonobod, G'uzor, Qamashi) bu ko'rsatkich 0,3–0,4 gektargacha kamaydi.

"Hotspot analysis" orqali aniqlangan joylarda xo'jaliklar zich joylashgan bo'lsa-da, ularga ajratilgan yer maydoni chegaralanganligi sababli resurs yetishmovchiligi yuzaga kelgan. Ayrim kam aholili hududlarda esa aksincha – xo'jaliklar kam bo'lgani bilan yer maydonlari katta.

Yer egalik koeffitsienti bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 0,55 ni tashkil etdi. Bu ko'pgina xo'jaliklarda yerga yetarlicha egalik yo'qligini ko'rsatadi. Fazoviy dispersiya tahlillari esa ba'zi yer uchastkalari infratuzilmadan uzoqda joylashganini ko'rsatdi.



Natijalar fazoviy yondashuvning samaradorligini asoslab berdi: statistik ko'rsatkichlar bilan chegaralanib qolmasdan, hududiy resurslardan foydalanish samaradorligini chuqur baholash imkoniyatini yaratdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan geotahliliy tadqiqotlar Qashqadaryo viloyatidagi dehqon xo'jaliklarining yer bilan ta'minlanganlik darajasida sezilarli hududiy farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Statistik hamda fazoviy tahlillar asosida yer resurslarining ayrim tumanlarda yetarli, ayrimlarida esa cheklanganligi aniqlanib, bu holat xo'jaliklarning iqtisodiy faoliyatiga bevosita ta'sir qilayotgani ma'lum bo'ldi. Shuningdek, dehqon xo'jaliklariga ajratilgan yer maydonlarining soni va hajmi ularning joylashuviga bog'liq ravishda o'zgarishi, yer egalik koeffitsienti va zichligi bo'yicha muvozanatning yetishmasligi kabi muhim muammolar qayd etildi.

Ushbu muammolarni bartaraf etishda geoinformatsion tizimlar asosida tahlil va rejalashtirish olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki GIT vositalari orqali yer resurslarining mavjud holati, ehtiyoj darajasi va taqsimoti aniq baholanadi hamda bu asosida manzilli qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- dehqon xo'jaliklarining yer egalik huquqlarini qayta ko'rib chiqish va yer ajratishda fazoviy holatni inobatga olish;
- GIT asosida doimiy ravishda yer fondi va xo'jaliklar joylashuvini monitoring qilish tizimini joriy etish;
- yer resurslari taqsimotida hududiy balansni saqlash maqsadida maxsus "yer zaxiralari"ni yaratish va ularni ehtiyojmand xo'jaliklarga taqdim etish;
- har bir tuman kesimida dehqon xo'jaliklari uchun yer bilan ta'minlanganlik standartlarini ishlab chiqish.

Umuman olganda, geotahliliy yondashuv asosida yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali nafaqat dehqon xo'jaliklarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki qishloq joylarda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. FAO (Food and Agriculture Organization). The State of Food and Agriculture 2020: Overcoming Water Challenges in Agriculture. Rome: FAO, 2020.
2. Batty, M. The New Science of Cities. MIT Press, 2013.
3. Longley, P., Goodchild, M., Maguire, D., Rhind, D. Geographic Information Systems and Science. 4th Edition. Wiley, 2015.
4. Xolboyev, T. O'zbekistonning janubiy hududlarida yer-suv resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. Mamatqulov, M. Qishloq xo'jaligida hududiy rejalashtirish va resurslardan foydalanish masalalari. – Qarshi: Nasr, 2022.
6. Qashqadaryo viloyati Yer resurslari va davlat kadastr boshqarmasi ma'lumotlari. – Qarshi, 2024.
7. QGIS Documentation. Geographic Information System for Spatial Analysis. Version 3.34, 2024. – www.qgis.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>